



## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDAGI NUTQIDA NUQSONI MAVJUD BOLALARGA LOGOPEDIK TA'SIR ETISH MEKANIZMLARI

*Roziqova Malika Olim qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Toshtemirova Ruxshonabegim Yusupjon qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Maxsus pedagogika(Logopediya ) yo'nalishi 2-kurs talabasi*

### Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda logopediya sohasiga berilayotgan e'tibor va amalga oshirilayotgan ishlar keltirilgan. Logopad bolaga logopedik ta'sir etish ahamiyati va ta'sir etishda metodlar o'rni aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** Logopad bola, korreksiya, kompensatsiya, logopedik ta'sir, metod, individual, innovatsion texnologiya.

### “Vatan taraqqiyoti yoshlar qo'lida”

Vatan – bu buyuk tushuncha ...

Vatan so'zi qay tilda jaranglamasin ma'no-mazmuni o'zgarmaydi. Qay bir inson bo'lmasin o'zining vataniga, yurtiga talpinadi. O'zbekiston biz uchun Vatanlar ichra buyuk Vatandir. Hozirgi davrda O'zbekiston eng tinch, farovon hayot kechirayotgan mamlakatlardan biridir. Bunga tenglik, birlik, mexr-oqibat, kelajak uchun bir-biriga chambarchas bog'langan. Ayniqsa, Vatan kelajagi bo'lgan yoshlarga berilayotgan e'tibor yaratilayotgan shart-sharoitlar fikrimizning dalilidir. Shu o'rinda Vatanimizda maxsus ixtisoslashtirilgan maktab internatlar tashkil etilgan bo'lib, hozirda ulardagi sharoitlar, olib borilayotgan ta'lim jarayonlari jahon talablariga javob bera oladigan mukammal dasturlar asosida olib borilmoqda. Bundan tashqari maxsus maktablarda faoliyat yurituvchi pedagoglar malakalarini oshirishlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda.



Logopediyaning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni bor shaxslarni o'qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek, nutq nuqsonining oldini olishdan iboratdir. Logopediya fani optimizm va chuqur insonparvarlik bilan yo'g'rilgandir. U nutqida nuqsoni bor bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib beradi.[1. 3 b]

Turli xil yoshda uchraydigan murakkab nutq nuqsonlarini bartaraf etishda eng so'ngi texnikalar va malakali professor-mutahasislardan foydalanish uchun alohida e'tibor qaratilmoqda. Logopedik ta'sir etish korreksiyon ta'lim bilan uzviy bog'liq jarayon bo'lib, u o'z ichiga korreksion ta'lim vzaifalarini qamrab olgan pedagogik jarayonlardan tashkil topgan. Logopedik ta'sir etish bir maqsadga yo'naltirilgan va turli nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda uning asosiy shakillari mavjud:

- ta'lim-tarbiya
- korreksiya
- kompensatsiya
- adaptatsiya
- reabilitatsiya

Logopedik ta'sir etishning asosiy yo'nalishi nutqning rivojlanishi, nuqsonli nutqni tuzatish va nuqsonlarning oldini olishdan iborat. Logopedik ish jarayonida sezuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish; uni harakatga keltiruvchi kuch, ayniqsa, nutqqa ta'sir etuvchi harakatlarni bilish, ayniqsa, tafakkur faoliyatini, xotira, diqqat jarayonlarini rivojlantirish; shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, yaxshilash bilan bir vaqtda bola shaxsini tarkib toptirish; ijtimoiy muhitga ta'sir etish nazarda tutiladi. Logopedik jarayonni tashkil etish nutq buzilishini to'g'rilash bilan bir qatorda psixofizik nuqsonlarni ham tugatish yoki yengillatish uchun sharoit yaratadi. U pedagogik ta'sir qilishning muhim maqsadi bo'lgan shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beradi[1. 5 b ].



Logopedik ta'sir turli xil metodlar yordamida amalga oshiriladi va logopedik ishda metodlarning quyidagi 3 tasnifi mavjud:

1. Amaliy metod
2. Ko'rgazmali metod
3. Og'zaki metod

Logopad bolaga ta'sir etishda ushbu 3 metoddan logoped o'z o'rnida qo'lay bilishi lozim va bola holatidan kelib chiqib, uning muhitga moslashishi uchun bolaga individual shaxsiy metodini ishlay bilishi kerak. Bundan tashqari yuqorida tasniflangan metodlarni qo'llashda bolaning yosh xususiyati, nutqiy nuqson turi va individual ruhiy xususiyatlari hisobga olinadi. Hozirgi kunda nutqiy nuqson turlari ham juda keng ammo dislaliyaning yengil va og'ir turlari, dizartriya, duduqlanish va alaliya nutq nuqsonlari ko'p tarqalgan nutqiy nuqsonlar sifatida kuzatilmoqda. Bular orasida eng murakkab nutqiy nuqsonlar sifatida dizartriya, duduqlanish va alaliya o'rganilmoqda.

Logopediya sohasiga to'xtaladigan bo'lsak, unga yangi o'rganilayotgan soha sifatida qarash ham bo'ladi. Logopediya bir necha asrlar davomida olimlar tomonidan o'rganilayotgan bo'lsa ham kundan-kunga yangi kasalliklar, kasalliklar tasnifi, tashxislarda yo'l qo'yilgan xatoliklarga to'g'ri yechim, turli nutq nuqsonlarini bartaraf etishga qaratilgan yangicha zamonaviy metodlar va boshqa ko'plab shu kabi yangilanishlar logopediyani batamom o'rganishga ta'sir etmoqda.

Logopediya sohasi yangi o'rganilayotgan davrda ko'p nutq nuqson kasalliklarni umumlashtirgan holda bir kasallik nomi bilan atashgan va bir xil metod hamda tashhis qo'yishar edi.

Bugungi kunga kelib innovatsion texnologiyalar, yangicha metodlar va texnikalardan foydalanilmoqda. Bundan tashqari logopedlar o'z malakalarini kundan kunga oshirib shaxsiy metodlarini kashf qilishmoqda, bular o'z o'rnida logopad bolalarga ijobiy natija bermoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ayupova M.Y. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jam’iyati nashriyoti, 2007. —560 b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.U.Qodirova va Z.X.Xusnuddinova. “Tiflopedagogika”. Chirchiq-2023.
2. Roziqova, M., & Moxistarabonu, X. (2024). INKLYUZIV TALIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI , 41 (1), 92-94.
3. Roziqova, M. (2024). O'SMIRLARDA IJTIMOY TARMOQLAR TASIRIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING OLDINI OLISH PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARB VAZIFASI SIFATIDA. DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI , 41 (1), 95-97.
4. Roziqova, M. (2023). Baynalminal oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *Interpretation and researches*, 1(1).
5. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *PEDAGOGS*, 48(2), 49-51.
6. qizi Rustamova, G. Z. X. (2024). Boshlangich sinf o‘quvchilarining maktabga intellektual tayyorgarlik muammosi. *Science and Education*, 5(5), 331-335.
7. Рахматуллаева, З. (2022). Профессиональное становление и педагогическое мастерство учителя. *Ученый XXI века*, (5-1 (86)), 37-38.
8. Olimjonovna, R. Z. (2024). Emotsional intellekt bolajak mutaxassislarning muhim xususiyati sifatida. *samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali* , 2 (4), 185-192.



9. Сатаров, А. Х. (2021). ВЕЧЕРА ДРУЖБЫ В СТУДЕНЧЕСКОЙ СРЕДЕ КАК ОДНА ИЗ ФОРМ ВОСПИТАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ И КОММУНИКАТИВНОСТИ. In Диалог культур и толерантность общения (pp. 6-9).
10. Сатаров, А. Х. (2023). Актуальные проблемы социокультурного роста и профессиональной подготовки подростков в современном Узбекистане. Развитие человека в современном мире,
11. Рафикова Р. Роль «психологического капитала» в преодолении эмоционального выгорания у педагогов //Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarida universal ta'lim faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023. – С. 321-323.
12. Рафикова Р. А. ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТА В РАБОТЕ РУКОВОДИТЕЛЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 16-21
13. Рафикова, Р. А. (2024). Теоретические аспекты социализации детей подросткового возраста с лёгкой степенью умственной отсталости. Science and Education, 5(3), 566-577.